

“BOLALAR ADABIYOTI VA IFODALASH” FANIDA DARS SAMARADORLIGINI OSHRISH

Abdurazzakova R.M.

*Sirdaryo pedagogika kolleji “Maxsus fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
Fayziyeva (Boboyeva) Aziza Karim qizi
Sirdaryo pedagogika kolleji o‘qituvchisi,
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
azizafayziyeva51@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va tarbiyachilarni estetik jihatdan tarbiyalashda, badiiy adabiyotning o‘rnini va ahamiyati, shuningdek bolalarning nutqini o‘sishida bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va shakllari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: she’r, hikoya, badiiy so‘z ifodalilik, obraz, iste’dod, ertak, bolalar adabiyoti.

Аннотация: В данной статье анализируются уникальные особенности и формы детской литературы в эстетическом воспитании дошкольников и педагогов, роль и значение художественной литературы, а также развитие речи детей.

Ключевые слова: стихотворение, рассказ, художественная выразительность, образ, талант, сказка, детская литература.

Abstract: This article analyzes the unique features and forms of children's literature in the aesthetic education of preschoolers and teachers, the role and significance of fiction, as well as the development of children's speech.

Key words: poem, story, artistic expression, image, talent, fairy tale, children's literature,

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so‘z katta o‘rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she’r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko‘rishadi.

Bolalar adabiyoti, avvalo o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazining go‘zalligi, tilning ifodaliligi, she’riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi.

Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolat-adolatsiz, to‘g’ri-noto‘g’ri deb o‘zlariga xos bir yordam beradi. Shu bilan bir qatorda badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Kichik guruhlarda badiiy adabiyot bilan tanishtirishda turli janrdagi adabiy asarlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu yoshda bolalarni ertaklar, hikoyalar, she’rlar tinglash, shunigdek ertakdagi harakatning rivojlanishini kuzatish, ijobiy kahramonlarga hamdard bo‘lishni o‘rgatish kerak.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar tilining g’oyasi, mazmuni va ifodali vositalarini tushunishiga, so‘z va iboralarning ajoyib ma’nosini anglashga qodir.

Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she’rlarning musiqaviyligi, tilning o‘tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so‘z qudratini his etadilar, uncha katta bo‘lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she’rlarini tez va osongina eslab qoladilar. Badiiy so‘zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog’chadan mакtabga ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo‘lib qoladi.

Yoshlarni ma’naviy yetuk, axloqiy iste’dodli, e’tiqodli, milliy qadriyatlar va an’analarni davom ettiruvchi mutaxassis qilib tarbiyalash hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun o‘quvchilarga badiiy asarlarni g’oyaviy badiiy jihatdan baholay olishi, o‘zbek tilining go‘zalligini his qilishi, mustaqil fikrlay olishni, qahramonlar hatti-harakatini baholay olishni o‘zgartirishimiz lozim.

Bolalar adabiyoti - so‘z san’ati va tarbiya vositasidir. Bu fan yoshlarni tarbiyalashda qudratli quroldir. Maktabgacha ta’lim muassasalariga tarbiyachilar tarbiyalashda “Bolalar adabiyoti” fanini o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak,

biz o‘qituvchilar oldida bolalarga yoshligidan boshlab mustaqil bilim berish, ularda vatanparvarlik hislatlarini rizojlantirish, o‘qishga intilish moyilligini shakllantirish, ularning tafakkurini rivojlantirish kabi bir qator vazifalar turibdi.

Ilg’or izlanuvchan, kreativ o‘qituvchilar har bir dars uchun yangilik izlaydi, ish jarayonida yangi metod, usullarni qo‘llay biladi. Har bir mavzu ustida ishlar ekan, albatta, qo‘srimcha adabiyotlarni topadi, ishlab chiqadi.

Bolalar adabiyoti darsida matn ustida o‘quvchilar bilan fikrlashar ekanmiz, ularni nutqini o‘stirishga alohida e’tibor berishimiz kerak. She’rlarni ifodali o‘qish bilan birga, yod olishga topshiriq berib, bir mavzuni o‘quvchining shaxsiy hayoti bilan bog’lab tushuntirib xulosalaydi.

Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg‘ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Bolalar bog‘chasida asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning ba’zi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga o‘tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o‘z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she’r, hikoya, ertak) lozim.

Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o‘qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko‘zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog‘cha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o‘rtoqlashish istagi va ko‘nikmasini tarbiyalashi lozim. Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo‘lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya’ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o‘zining tarbiyaviy rolini bajaradi.

Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko‘rib chiqish va takrorlash

materialini belgilab olishi lozim. Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o‘qib beradigan asarlarini tavsiya ro‘yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda his-tuyg‘u va xulq-atvorni, tevarak-atrofga har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o‘zaro munosabatlarini, o‘yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir asarni tevarak- atrofdaga ma’lum hodisalar bilan bog‘lash va o‘sha vaqtdagina o‘qib berish lozim, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Albatta, kitobdagи hodisalarga bog‘liq mavzuni o‘qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtda ham bunday kitob o‘qishni o‘tkazish lozim.

Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya tizimida o‘qituvchilarining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, u yagona axborot manbai bo‘la olmasligi hayotiy xaqiqatdir. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorlikni oshiradigan omillardan keng foydalanish lozim. Ana shunday ishlardan biri bu texnik vositalardir. Kreativ o‘qituvchi albatta har bir darsida texnik vositalardan unumli foydalanib, dars tashkillashtirish kerak.

Mana masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiychilariga “Xalq og’zaki ijodi” mavzusi o‘tiladi. “Xalq og’zaki ijodi” mavzusini yoritishda O‘zbekiston Respublikasisining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni, “Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari”, “Ilk qadam” Davlat dasturi bilan hamohang ravishda olib borishi lozim. O‘quvchilarining xalq og’zaki ijodiga qiziqishlarini aniqlashning eng qulay metodi, ular bilan jamoa va yakkama-yakka suhabatlar o‘tkazishdir. Suhbatning ikkita shaklida ham bitta maqsad o‘quvchilarda faollikni oshirish hamda mustaqil fikrlashni takomillashtirishdan iborat bo‘lib, ularga muayyan xalq og’zaki ijodi namunalarini o‘rgatish, o‘quvchi dunyoqarashining kengayishiga yaxshi ta’sir qiladi. Insoniyatning tarixi, hayotiy tajribalari shuni tasdiqlaydiki, xalq orasida inson fazilatlari ikki ma’noda ijobiy va salbiy fazilatlarga bo‘linadi. Har ikkalasi ham butunlay boshqa-boshqa tushunchalar bo‘lsa-da, ular inson faoliyati va axloqida muntazam ravishda alohida-alohida namoyon bo‘lib boradi.

Darsning samaradorligini oshirishda quyidagilarni unutmaslik kerak:

- Dars qoldirmaslik, kech qolmaslik;
- Aniq maqsad qo‘yish va unga erishish;
- Fikrni bo‘lmaslik;
- Fikrni aniq, qisqa va ravon ifoda etish.

O‘quvchi, tarbiyachilarimiz dars jarayonida shu qoidalarga amal qila olishsa, o‘z fikrlarini, g’oyalarini aytishda chochimasa, serg’ayrat, shijoatli, o‘zgalarni fikrini hurmat qila olishsa, darslar o‘z samaradorligini berishi aniq.

Xalq og’zaki ijodi bola tarbiyasida muhim o‘rin tutar ekan, uni o‘zgartirishda darsda turli metodlardan foydalanish lozim:

- Ertaklarni tahlil qilish;
- Testlar;
- Rollarga bo‘lib o‘qish;
- Sahnalashtirish;
- Rolli o‘yin;
- Matn tahlili;
- Davom ettirish mashqi;
- Didaktik o‘yinlar;
- Ertak asosida rasm chizish;
- Ifodali o‘qish;
- Ertak asosida ishlangan multfilm tomosha qilish;
- Xalq og’zaki ijodi turlarinining g’oyaviy mazmunini tahlil qilish;

O‘qituvchi dars shakliga qarab metodlarni tanlab oladilar. Yana masalan maqolni tushuntirishda:

- Yod olish;
- Maqollarni davom ettirish;
- O‘ylab top;
- Anogramma usullaridan unumli foydalanish mumkin.

Hozirgi zamон ta'lim-tarbiyasi o'rgatayotgan fanni eng yaxshi sahifalarni, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarni sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki o'qituvchining vazifasi o'quvchini har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, imon-e'tiqodlarimizni, qadriyatlarimizni qadrlashni o'rgatishdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo'libgina qolmay, balki insonlarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va samimiyl fazilatlar tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyotni xulq-atvorni o'rganish vositalari sifatida ishlatgan holda, tarbiyachi insoniy tuyg'ular va axloqiy g'oyalarni shakllantirish uchun asarlarni tanlash va badiiy asarlar bo'yicha suhbatlar o'tkazishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar oldida juda katta vazifa mavud bo'lib, bu yosh avlodni badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, kitobni sevishga o'rgatish va shu bilan bir qatorda badiiy adabiyot soyasida bolalar nutqini rivojlantirish kabi masalalar turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Asqarova "Kichik yoshdagи bolalar nutqini o'stirish". T.-O'zbekiston. 2001 yil.
2. F.O'rnova "Kichik mакtab yoshli o'quvchilarni nutq madaniyatini o'stirish".
3. M.Jumaboyev "Bolalar adabiyoti". Darslik. 2010 yil.
4. I.Masharipova, T.Matyoqubov "o'zbek yozma adabiyotida folklore an'analari". T.-2011 yil
5. Paul H.Fry. Theory of Literature Vau University 2012.

Internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz